O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 1 - aprel 182-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-martdagi 141-son qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-martdagi “Tuman (shahar) hokimliklarining raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejerlarining ish faoliyati samaradorligini baholash va ularni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 141-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-martdagi “Tuman (shahar) hokimliklarining raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejerlarining ish faoliyati samaradorligini baholash va ularni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 141-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qarori bilan 2022-yil 1-oktyabrdan boshlab tuman (shahar) hokimliklari tuzilmasiga raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejeri (keyingi o‘rinlarda — loyihalar menejeri) lavozimi kiritilganligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligiga ushbu loyihalar menejerlarining ish haqiga Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 100 foizgacha qo‘shimcha ustama haqini to‘lash huquqi berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman (shahar) hokimliklarining raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejerlarining ish faoliyati samaradorligini baholash va ularni

rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-martdagi 141-son qarori ilovasiga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, hududlarda elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot sohasidagi loyihalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha maqsadli indikatorlar va samaradorlik ko‘rsatkichlarining o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga tuman (shahar) hokimlari shaxsan javobgar hisoblanadi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining hududiy sho‘basi (Y.Gafurov) 2024-yil 1-aprelga qadar tuman (shahar) hokimliklarining raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejerlari ish faoliyati samaradorligini baholash va ustamalar belgilash bo‘yicha komissiya tarkibini tasdiqlash uchun raqamli texnologiyalar vazirligiga takliflar kiritsin;

2024-yil 1-iyulga qadar loyihalar menejeri faoliyati samaradorligini baholash tizimi va ularning faoliyatiga doir hisobotlarning yuritilishini tajriba-sinov tariqasida, 2024-yil yakuniga qadar esa to‘liq avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilishini ta’minlasin;

har yili 1-dekabrga qadar kelgusi yil uchun hududlarda loyihalar menejeri faoliyati samaradorligi maqsadli ko‘rsatkichlarining namunaviy reja jadvalini tasdiqlasin.

6. Ushbu qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Farg‘ona viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari X. Sirojitdinov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2024-yil 1-apreldagi
182-11-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tuman (shahar) hokimliklarining raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejerlarining ish faoliyati samaradorligini baholash va ularni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom hududlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari doirasida tuman (shahar) hokimliklarining raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejerlari faoliyati samaradorligini baholash va ularni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

loyihalar menejeri — tuman (shahar) hokimliklarining xodimlar shtat jadvalida asosiy ish joyi sifatida mehnat shartnomasi asosida ro‘yxatga olingan va mazkur tuman (shahar) hududida raqamli iqtisodiyot loyihalarining joriy qilinishini muvofiqlashtirish, kompleks monitoringini olib borish va hisobotlarini tayyorlashga mas’ul bo‘lgan xodim;

nis.egov.uz tizimi — respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari va tuman (shahar) hokimliklarida raqamli transformatsiya holatini hamda hududlarda raqamli iqtisodiyot holatini reyting baholash tadbirlarini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan idoralararo axborot tizim;

samaradorlikning maqsadli ko‘rsatkichlari — O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) tomonidan joriy yilda kelgusi yil mobaynida loyihalar menejeri tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan, har yilda bir marta tasdiqlanuvchi, loyihalar menejerlari faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlari rejasi.

3. Loyihalar menejeri ish haqiga qo‘shimcha ustama haqi to‘lovlari Vazirlikning Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinda — Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

4. Loyihalar menejerlarining ish haqiga qo‘shimcha ustama haqi Tuman (shahar) hokimliklarining raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejerlari ish faoliyatini samaradorligini baholash va ustamalar belgilash

bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda — Komissiya) qarori asosida amalga oshiriladi.

5. Komissiya qarori har olti oylik davr yakuni bo‘yicha qabul qilinadi va unga asosan loyihalar menejerining lavozim okladiga nisbatan 100 foizgacha miqdorda ustama belgilanadi.

6. Loyihalar menejerining lavozim maoshiga Jamg‘arma hisobidan to‘lanadigan har oylik ustama keyingi olti oylik davr uchun Komissiya qarori qabul qilingunga qadar amal qiladi.

7. Loyiha menejerlariga oylik ustama haqi to‘lovlari Vazirlik tizimidagi “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi tomonidan xarajatlar smetasi doirasida Jamg‘armadan ajratilgan mablag‘lar hisobidan tuman (shahar) hokimligining budjetdan tashqari hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi.

2-bob. Loyihalar menejeri lavozimi bo‘yicha nomzodlarga qo‘yiladigan talablar, ularning asosiy vazifalari va faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari

8. Loyihalar menejeri lavozimi bo‘yicha nomzodlarga qo‘yiladigan talablar, ularning asosiy vazifalari va faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari tuman (shahar) hokimliklari tomonidan tasdiqlanadigan lavozim yo‘riqnomalarida belgilanadi.

9. Loyihalar menejeri lavozimiga nomzodlar, tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklarining raqamlashtirish bo‘yicha maslahatchilari va Vazirlikning tegishli hududiy bo‘linmasi bilan kelishilgan tartibda lavozimga tayinlanadi.

10. Raqamlashtirish dasturlarida belgilangan ustuvor vazifalar va loyihalarda bir qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi hamda bu kabi kamchiliklarga muayyan davr mobaynida ta’sirchan choralar ko‘rilmaganligi borasida asoslantirilgan ma’lumotlar taqdim etilgan taqdirda, tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklarining raqamlashtirish bo‘yicha maslahatchilari va Vazirlikning tegishli hududiy bo‘linmasi tegishli tuman (shahar) hokimliklariga loyihalar menejerini egallab turgan lavozimdan ozod etish masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar kiritishi mumkin.

3-bob. Loyihalar menejeri faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlari

11. Loyihalar menejeri faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlari Vazirlik tomonidan namunaviy ko‘rinishdagi hujjat sifatida ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda idoraviy hujjat sifatida tasdiqlanib, hududlarda loyiha menejerlari tomonidan ishlashga qabul qilinishi uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga taqdim etiladi.

12. Loyihalar menejeri faoliyati samaradorligi foizli tizimda o‘lchanadi va 100 foiz eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

13. Loyihalar menejerining shaxsiy maqsadli ko‘rsatkichlari rejasida, ushbu reja ishlab chiqilishida kiritilishi majburiy bo‘lgan, quyidagi baholash mezonlari va ularga ajratiladigan samaradorlikning nisbiy miqdorlari ko‘rsatiladi:

hududlarda raqamli iqtisodiyot holatini reyting baholash natijasi — 10 foiz;

tuman (shahar) hokimliklarining raqamli rivojlanish darajasini reyting baholash natijasi — 10 foiz;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha savodxonligi test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tganligini tasdiqlovchi guvohnoma mavjudligi — 10 foiz.

14. Qo‘shimcha maqsadli ko‘rsatkichlar Vazirlik tomonidan hududda mavjud ehtiyoj va zaruriyatlardan kelib chiqib, raqamli infratuzilma, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish ulushini oshirish, axborot xavfsizligini ta’minlash, hududdagi IT-ta’lim ko‘lamini oshirish, axborot tizimlari va raqamlashtirish loyihalarini joriy etish yo‘nalishlari bo‘yicha loyihalar menejerlarining faoliyati samaradorligining namunaviy maqsadli ko‘rsatkichlari rejasi bilan tasdiqlanadi.

4-bob. Loyihalar menejerlari ish faoliyati samaradorligini baholash va ustamalar belgilash

15. Joriy yil uchun tasdiqlangan samaradorlikning maqsadli ko‘rsatkichlariga muvofiq loyihalar menejerlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar Komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladi.

16. Komissiya tekshiruvi natijasiga ko‘ra samaradorlikning maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilganlik darajasi foizlarda qayd etiladi va quyidagicha

toifalanadi:

71 foizdan 100 foizgacha — yaxshi (“yashil”);

55 foizdan 70 foizgacha — qoniqarli (“sariq”);

55 foizdan past — qoniqarsiz (“qizil”).

17. Samaradorlikning maqsadli ko‘rsatkichlari Komissiya tomonidan yaxshi bajarilgan deb qayd etilishi hamda “yashil” ro‘yxatga kiritilishi ushbu hududning loyihalar menejeri ish haqiga qo‘shimcha ustama haq belgilanishiga asos bo‘ladi.

18. Ustama haq miqdori loyiha menejeri tomonidan samaradorlikning maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilganlik foiziga teng miqdorda belgilanadi va loyihalar menejerining lavozim okladiga nisbatan ko‘pi bilan 100 foizgacha bo‘lishi mumkin.

19. Loyihalar menejeri faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlarini tasdiqlash, maqsadli ko‘rsatkichlar asosida bajarilgan ishlar hisobotlarini topshirish, hisobotlarni qabul qilish, tekshirish, baholash va ustama haq belgilanishi yoki ustama haq belgilanishida rad etilishi bosqichlari nis.egov.uz idoralararo reyting baholash tizimida ushbu Nizomning ilovasida ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

20. Rag‘batlantirish chora-tadbirlarining samaradorligini oshirish maqsadida loyihalar menejerlarining ilg‘or tajribasini va faoliyati samaradorligi ommaviy axborot vositalarida yoritiladi.

21. Vazirlik zarurat bo‘lganda, baholash ko‘rsatkichlari ro‘yxati hamda ularni hisoblash usullariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vakolatiga ega.

22. Ushbu Nizom yuzasidan kelib chiqadigan nizoli masalalar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

23. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Tuman (shahar) hokimliklarining raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejerlarining ish faoliyati samaradorligini baholash va

ularni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
ilova

Loyihalar menejeri faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlarini tasdiqlash, maqsadli ko‘rsatkich asosida bajarilgan ishlar hisobotlarini topshirish, hisobotlarni qabul qilish, tekshirish, baholash va ustama haq belgilash

SXEMASI

Bosqichlar	Mas’ullar	Tadbirlar	Muddat
1-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Keyingi yil davomida loyihalar menejerlari faoliyati samaradorligining maqsadli ko‘rsatkichlarining namunaviy reja jadvali tasdiqlanadi va ishlash uchun nis.egov.uz tizimiga kiritilgan holda e’lon qilinadi	har yili 1-dekabrga kadar
2-bosqich	Loyihalar menejerlari	Namunaviy reja jadval asosida shaxsiy maqsadli ko‘rsatkichlar rejasi nis.egov.uz tizimida ishlab chiqiladi va tegishliligi bo‘yicha Raqamli texnologiyalar vazirligining hududiy bo‘linmasi va raqamlashtirish bo‘yicha maslahatchi bilan kelishish uchun taqdim etadi	namunaviy reja jadval tasdiqlangan kundan 10 ish kuni ichida
3-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligining hududiy bo‘linmasi	1. Shaxsiy maqsadli ko‘rsatkichlar rejasini nis.egov.uz tizimida kelishadi va Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanishi uchun yuboriladi. 2. Shaxsiy maqsadli ko‘rsatkichlar rejasini qayta ishlab, takroriy kelishuvga kiritilishi talab etiladi.	10 ish kunida 3 ish kunida

4-bosqich	Raqamli texnologiyalar vazirligi	1. Shaxsiy maqsadli ko‘rsatkichlar rejasi tasdiqlanadi va nis.egov.uz tizimida alohida bandlar ko‘rinishida tegishli loyihalar menejeri uchun ijroga qaratiladi. 2. Shaxsiy maqsadli ko‘rsatkichlar rejasi qayta ishlab, tasdiqlash uchun takroran kiritilishi talab etiladi.	10 ish kunida 3 ish kunida
5-bosqich	Loyihalar menejerlari	Maqsadli ko‘rsatkichlar rejasiga asosan ijroga qaratilgan vazifalar bajarilishi yuzasidan hisobotlar nis.egov.uz tizimiga kiritib boriladi	Doimiy
6-bosqich	Loyihalar menejeri ish faoliyati samaradorligini baholash va ustamalar belgilash bo‘yicha komissiya	Loyihalar menejerlari tomonidan shaxsiy maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilganlik darajasi tahlil qilinadi va baholanadi	Har yarim yillik yakunidan keyingi oyning 25 sanasiga qadar
7-bosqich	Loyihalar menejeri ish faoliyati samaradorligini baholash va ustamalar belgilash bo‘yicha komissiya	Loyihalar menejerlari reytingi hamda ustama haq belgilanishiga tavsiyalangan loyihalar menejerlari ro‘yxati nis.egov.uz tizimida e’lon qilinishi	Har yarim yillik yakunidan keyingi oyning 30 sanasiga qadar